



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**  
**REKTORINING BUYRUG‘I**

2025-yil “26” sentabr

250-UM

Toshkent sh.

**Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida ta’lim sifatini yanada takomillashtirishga yo’naltirilgan qo’shimcha chora tadbirlar to’g’risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim sifatini ta’minlash va ta’lim xizmatlari ko’rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” 2025-yil 5-maydagi PF-76-son Farmoni ijrosini ta’minlash hamda Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida optimizatsiya, transformatsiya va xalqarolashtirish jarayonlarini izchil amalga oshirish, ta’lim sifatini yanada takomillashtirish, universitet Kengashining 2025-yil 30-avgustdagi 1-son majlisi qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida 2025/2026-o‘quv yili **“Ta’lim sifatini rivojlantirish yili”** deb e’lon qilinsin va barcha tarkibiy bo‘linmalar uchun ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish asosiy maqsad va faoliyat yo‘nalishi etib belgilansin.

2. **Universitet prorektorlar: N.Abdullayev, D.Sayfullayev; Institutlar direktorlari: H.Mirzahmedova, G‘.Arifjanov; fakultetlar dekanlari: M.Asqarov, A.Vaxidovga:**

2.1. Universitetda ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish uchun:

**Joriy yil 6-oktabriga qadar** universitet oliy maktab/kafedralarida professor-o‘qituvchilarning ta’lim sifatini to‘liq ta’minlashdagi shaxsiy mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilsin va tasdiqlash uchun taqdim etilsin.

Bunda:

- professor-o‘qituvchilarning o‘zaro darslarga kirishlarini tizimli tashkil etish;
- yosh o‘qituvchilarni “ustoz-shogird” tamoyili asosida tajribali professor-o‘qituvchilarga biriktirish;
- ochiq darslar, ochiq ma’ruzalar rejalashtirish, kuzatish va natijalarini matbuotda e’lon qilish choralari ko‘rish.

- dars mashg'ulotlarini kreativ, tanqidiy fikrlash, natijaga yo'naltirilgan faoliyat, mustaqil ta'lim usullaridan foydalangan holda olib borish;

- ta'lim iste'molchilari bo'lgan talabalarning dars mashg'ulotlarini olib borish va sifatini oshirish, professor-o'qituvchilarning mahorati, shaxsiy fazilatlarini bo'yicha fikr-mulohazalarini doimiy ravishda o'rganib borish uchun har semestrda kamida ikki marta so'rovnomalar o'tkazib borish va natijalarini muhokama qilish ishlariga ustivorlik berilsin.

### **3. O'quv ishlari bo'yicha prorektor N.Abdullayev; Ta'lim sifati nazorati bo'limi boshlig'i S.Mahkamovaga:**

3.1. "Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha ekspertlar ro'yxati" 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Ekspertlar guruhi rahbari etib Markaziy Osiyo xalqlari tarixi kafedrasida dotsenti v.b., Abirov Valisher Elmuradovich tayinlansin.

3.2. Ekspertlar guruhi uchun "Dars sifatini tekshirish mezonlari" 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.3. Ekspertlar guruhi a'zolari uchun APS platformasida "Dars mashg'ulotlari sifatini kuzatgani uchun" nomi ostida alohida mezon kiritilsin.

### **4. O'quv ishlari bo'yicha prorektor N.Abdullayev; O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i S.Umarova; Axborot-resurs markazi boshlig'i M.Yuldasheva; institutlar direktorlari: H.Mirzahmedova, G'.Arifjanov; fakultetlar dekanlari: M.Asqarov, A.Vaxidovga:**

4.1. Universitet oliy maktab/kafedralarida o'qitiladigan fanlarning o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanganligini zamonaviy talablar darajasiga olib chish maqsadida:

- o'quv dasturlariga kiritilgan hamda amalda foydalanilayotgan asosiy o'quv adabiyotlari tarkibi tanqidiy qayta ko'rib chiqilsin va mavjud holat tahlil qilinsin (muddat: 2025-yil 30-oktabr);

- o'quv dasturlaridagi zamon talablariga javob bermaydigan o'quv adabiyotlarini ta'lim jarayonidan chiqarish va yetishmaydigan o'quv adabiyotlarini yaratish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqilsin (muddat: 2025-yil 30-oktabr);

- ta'lim jarayonidan chiqarilgan va yetishmaydigan o'quv adabiyotlari o'rniga ilg'or ta'lim texnologiyalari, xorijiy tajribalar va universitetda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijalarini faol joriylash asosida 2026-yil uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish rejaları ishlab chiqilsin (muddat: 2025-yil 30-noyabr).

### **5. Devonxona va arxiv bo'limi mudiri Sh.Yakubjanovaga:**

Mazkur buyruq nusxalarini tegishli mas'ul shaxslarga yetkazilishi ta'minlansin.

6. Ushbu buyruq ijrosining nazoratini o'z zimnamda qoldiraman.

**Rektor**



**G.Rixsiyeva**

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**  
**Ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha ekspertlar**  
**RO'YXATI**

<b>T/r</b>	<b>F.I.Sh.</b>	<b>Oliy maktab / Kafedra</b>	<b>Lavozimi</b>
1.	Abirov Valisher Elmuradovich	Markaziy Osiyo xalqlari tarixi kafedrası	PhD, dotsent – guruh rahbari
2.	Doniyorov Alisher Xudoyberdiyevich	Markaziy Osiyo xalqlari tarixi kafedrası	t.f.d., professor
3.	Ziyamuxamedov Jasur Tashpulatovich	Xitoyshunoslik oliy maktabi	DSc, professor
4.	Kim Natalya Dekxenovna	Koreyashunoslik oliy maktabi	DSc, professor
5.	Yo'ldosheva Hilola Abdulxayevna	Arabshunoslik oliy maktabi	DSc, dotsent
6.	Kayumova Mexriniso Miraxmatovna	Turkshunoslik oliy maktabi	PhD, dotsent
7.	Kim Tatyana Sergeyevna	Koreyashunoslik oliy maktabi	PhD, dotsent
8.	Rasuleva Nigina Alisherovna	Xitoyshunoslik oliy maktabi	PhD, dotsent
9.	Ismatullayeva Nargiza Rasuljanovna	Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi	PhD, dotsent
10.	Soliyeva Muxabbat Kushanovna	Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi	f.f.n., dotsent
11.	Niyazova Nargiza Muxtarovna	Xalqaro munosabatlar kafedrası	PhD, dotsent
12.	Zaripova Zebiniso Abdurahmanovna	Xalqaro munosabatlar kafedrası	s.f.n., dotsent
13.	Saydaliyeva Nigora Zaynutdinovna	Sharq falsafasi va germeneytika kafedrası	fals.f.n., dotsent
14.	Ikramova Iroda Rixsivayevna	Sharq falsafasi va germeneytika kafedrası	PhD, dotsent
15.	Gaziyeva Sulxiya Saidmashrapovna	Tashqi iqtisodiy faoliyat kafedrası	PhD, dotsent v.b.
16.	Uktamova Xilolaxon Azamat qizi	Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi	PhD, katta o'qituvchi
17.	Umarova Mohira Azimjon qizi	Janubiy-Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi	PhD, katta o'qituvchi
18.	Qosimova Gulnora Baxtiyor qizi	Yaponshunoslik oliy maktabi	PhD, katta o'qituvchi
19.	Matchonov Elyor Omonboyevich	Yaponshunoslik oliy maktabi	Katta o'qituvchi
20.	Nishanbayeva Aziza Ilgisovna	Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi	Katta o'qituvchi

## Dars sifatini tekshirish mezonlari

Institut (fakultet), kurs, guruh, sana, para, vaqti, auditoriya \_\_\_\_\_

F.I.Sh., oliy maktab (kafedra), lavozimi \_\_\_\_\_

Fan: \_\_\_\_\_

Mavzu: \_\_\_\_\_

No	Mezonlar-100 ball	Maks.ball	To'pl.ball	Izoh
<b>I.O'quv-uslubiy hujjatlar - 15 ball</b>				
1.	Dars ta'minoti. O'quv-uslubiy tayyorgarlik: <ul style="list-style-type: none"> <li>• Darslik, o'quv qo'llanma</li> <li>• O'quv dasturi</li> <li>• Sillabus / ishchi dastur</li> <li>• Mustaqil ta'lim ishlanmasi</li> <li>• O'qituvchining shaxsiy ish rejasi</li> <li>• Tarqatma materiallar</li> <li>• Slaydlar</li> </ul>	2 2 2 3 2 2 2		
	Barcha o'quv-uslubiy hujjatlar talabga mos shakllangan hamda belgilangan tartibda tasdiqlangan bo'lishi kerak.	<b>15 ball</b>		
<b>II. O'qituvchining kasbiy malakasi - 25 ball</b>				
1.	Fan bo'yicha nazariy bilim, kasbiy kompetensiya	6		
2.	Amaliy va nazariy bilimlardan foydalanish mahorati, ularnihayotga bog'lagan holda dars o'tishi	6		
3.	Yangi materiallardan (ilm-fanning yangi yutuqlaridan) foydalanish	5		
4.	O'qitish usullari va shakllarini to'g'ri tanlay bilish ko'nikmasi	3		
5.	Multimedia vositalari, onlayn platformalar va elektron manbalardan foydalanish	5		
		<b>25 ball</b>		
<b>III.O'qituvchining pedagogik mahorati - 45 ball</b>				
1.	Darsning boshlanishi (vaqtida yoki kech qolib)	1		
	Dars mavzusining tematik reja va sillabusga muvofiqligi	2		
	Darsning maqsadi va vazifalarini aniqlash	2		
2.	Darsning tashkiliy tizimiga rioya qilish (kirish, asosiy qism, mustahkamlash, xulosa, uyga vazifa)	4		

	Dars berish uslubi va talabalarni mavzuni o'zlashtirishga jalb qilish usullari (monolog, dialog, muammoli savollar, slayd-taqdimotdan unumli foydalanish, texnik vositalardan foydalanish va boshqalar)	5		
	Ta'limni tashkil qilish shakllari (yakka, juft, kichik guruh va butun auditoriya bilan)	5		
3.	Talabalarni mustaqil ishlash shakllari (tavsiflang)	5		
4.	O'qituvchi odobi va intizomi (qo'l telefonni o'chirilganligi, kiyinish madaniyati, o'zini tutish qobiliyati va hokazo); O'qituvchi nutq madaniyati va texnikasi, diksiyasi; O'qituvchining talabalarga munosabati (diqqatli, talabchan, befarq, hurmatsiz va boshqalar); Talabalarining o'qituvchiga munosabat uslubi (hurmatli, istehzoli, befarq va boshqalar).	2 3 3 2		
5.	O'qituvchining talabalarni e'tiborini safarbar qila olishi, ularda qiziqish uyg'otish qobiliyati, auditoriyada ijodiy muhitini yarata olish	4		
6.	Talabalar faolligi darajasi	5(100%)		
7.	Darsning maqsadga yetish darajasi	5		
8.	Talabalar bilimini baholab borish	1		
		<b>45 ball</b>		
<b>IV. O'qituvchining ma'naviy kamoloti-15 ball</b>				
1.	Ma'naviy-ahloqiy tarbiya: talabalarni dunyoqarashini shakllantirish ustida ish olib borildimi, dars o'quvchilarning hayotiy tajribalari bilan qanday bog'landi?	10		
2.	Talabalar davomati	5 (100%)		
		<b>15 ball</b>		
		<b>Umumiy ball 100</b>		
<b>Umumiy xulosa va tavsiyalar:</b>				
<b>Darsni salbiy jihatlari:</b>				

Ekspertlar guruhi a'zosi \_\_\_\_\_ Dars o'tgan o'qituvchi \_\_\_\_\_ Ekspertlar guruhi raisi \_\_\_\_\_